



SHIFOKOR

SAMARQAND DAVLAT
TIBBIYOT INSTITUTI
NASHRI

SOʻZI

GAZETA 1938 YILDAN “MEDITSINA FANI UCHUN” NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN

Vatanimiz mustaqilligi – biz uchun kuch-qudrat va ilhom manbai, taraqqiyot va farovonlik asosi

Prezident Shavkat Mirziyoyevning Oʻzbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 30 yillik bayramiga bagʻishlangan tantanali marosimdagi nutqi



Bugungi qutlugʻ ayyomda barchamiz, butun xalqimiz Oʻzbekiston mustaqilligini eʼlon qilib, tariximizning eng murakkab va ogʻir davrlarida davlatimizni boshqargan Birinchi Prezidentimiz muhtaram Islom Abdugʻaniyevich Karimov nomini, u kishining bevosita rahbarligida, xalqimizning matonati va jasorati bilan amalga oshirilgan ulkan ishlarni esga olishimiz tabiiydir.

Istiqlol yillarida yurtimizda yangi davlat va jamiyat qurish yoʻlida muhim ishlar bajarildi. Qisqa muddatda mamlakatimiz Konstitutsiyasi ishlab chiqildi. Zamonaviy davlatchilik asoslari, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari shakllandi.

Mamlakatimiz mustaqilligi va suverenitetini, sarhadlarimiz daxlsizligini, xalqimizning tinch va osoyishta hayotini ishonchli himoya qilishga qodir boʻlgan Qurolli Kuchlar barpo etildi.

Milliy valyutamiz – soʻm joriy qilindi, oltin-valyuta zaxiralarimiz shakllantirildi. Qadimiy tariximiz, boy madaniy merosimiz, milliy-diniy qadriyatlarimiz, oʻzligimiz tiklandi.

Muxtasar aytganda, koʻpni koʻrgan xalqimiz oʻzining mustahkam irodasi va matonati, beqiyos salohiyatini namoyon etib, tarixan qisqa fursat ichida ulkan taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtdi.

Vatanimiz jahon hamjamiyatidan munosib oʻrin egalladi. Mana shunday buyuk tarixiy jarayonlarda faol ishtirok etish nasib qilganidan koʻpchilik vatandoshlarim qutni ham baxtiyorman...

... Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Biz keyingi yillarda belimizni mahkam bogʻlab, milliy manfaatlarimizni taʼminlash, xalqimizni rozi qilish yoʻlida sidqidildan mehnat qilib, gʻoyat muhim natijalarni qoʻlga kiritmoqdamiz.

Eng asosiy natija – boshlagan islohotlarimiz ortga qaytmaydigan muqarrar tus olganida, bugungi jamiyatimizning maʼnaviy uygʻonishida namoyon boʻlmoqda.

Maʼnaviy uygʻoq jamiyatni, oʻz oldiga ulkan vazifalar qoʻyib, kelajak sari ishonch bilan borayotgan

xalqni hech kim oʻz yoʻlidan toʻxtata olmaydi. Bunday xalqni Yaratganimiz ham qoʻllab-quvvatlaydi, doimo yoʻlini ochib beradi.

Bugun million-million vatandoshlarimizning ongu tafakkuri oʻzgarib, ular islohotlar jarayoniga oʻzini bevosita daxldor deb bilmoqda, bu oʻzgarishlarning faol ishtirokchisiga aylanmoqda.

Bugun biz yagona xalq, yagona millat boʻlib, koʻzlagan yuksak maqsadlarimiz sari dadil bormoqdamiz. Vujudimizda, qonimizda ajdodlarimizdan meros buyuk qudrat joʻsh urayotgan ekan, biz ezgu orzu va maqsadimiz boʻlmish yangi Oʻzbekistonni albatta bunyod etamiz. Oʻzbekiston har tomonlama obod va farovon, erkin demokratik mamlakatga aylanadi.

Men siz, azizlarni, millati, tili va dinidan qatʼi nazar, barcha yurtdoshlarimizni ana shunday ulugʻ va sharaflı safda – yangi Oʻzbekiston bunyodkorlari safida koʻrib turganimdan baxtiyorman.

Oradan hali qancha yillar, asrlar oʻtadi. Yurtimizda yangi-yangi avlodlar dunyoga keladi. Milliy davlatchilgimizni tiklab, bizga taraqqiyot va farovonlikka erishish yoʻlida mana shunday beqiyos imkoniyatlarni yaratib bergan istiqlolimiz jonajon Vatanimizning shonli tarixida hamisha eng yorqin, oʻchmas sahifa boʻlib qoladi.

Fursatdan foydalanib, siz qadrdonlarimni, moʻʼtabar nuroniyalarimiz, mehribon opa-singillarimiz, azmu shijoatli yoshlarimizni, butun xalqimizni Mustaqillik bayrami bilan yana bir bor chin qalbimdan samimiy tabriklayman.

Mana shu muborak ayyomda barcha yutuqlarimizning bunyodkori boʻlgan mehnatkash, mard va saxovatli, bagʻrikeng va olijanob xalqimizga farzandlik mehri bilan taʼzim qilaman.

Barchamizni oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazgan ona xalqimiz doimo omon boʻlsin!

Yurtimizda yashayotgan har bir oila, har bir inson ezgu maqsadlariga yetsin!

Mustaqilligimiz abadiy boʻlsin! Eʼtiboringiz uchun rahmat.

Aziz doʻstlar, opa-singil aka-uka, hamda ustozlar!

Assalomu alaykum aziz Vatandoshlar! Mana bugun ona Vatanimiz, jonajon Oʻzbekistonimizning Mustaqilligiga ham 30 yil toʻlmoqda. Mustaqillik biz uchun hayotimizning maʼno-mazmunini butunlay oʻzgartirgan, tariximizda yangi davlatni barpo etdi.

Mustaqillik sababli dunyoning rivojlangan mamlakatlari bilan hamkorliklar yoʻlga qoʻymoqdamiz, yoshlarimizga dunyo eshiklarini ochib bermoqdamiz, Oʻzbekiston dunyo boʻylab boʻy choʻzmoqda.

Fursatdan foydalanib, barchangizni xalqimizni istiqlolning 30 yilligi bilan muborakbod etaman. Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo boʻlsin!

SamMi rektori, professor J.A.Rizayev





«El-yurt umidi» jamg'armasi stipendiyasi sovrindorlari

Bugun Toshkent Pediatriya tibbiyot institutida Bosh vazir o'rinbosari B.Musayev, Sog'liqni saqlash vaziri A.Xadjibayev, «El-yurt umidi» jamg'armasi rahbariyati va boshqa xodimlar ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «N.I.Pirogov nomidagi Rossiya milliy tadqiqot tibbiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali faoliyatini tashkil etish to'g'risida» 2021-yil 1-iyuldagi PQ-5169-sonli Qarori asosida 38 nafar abituriyent N.I.Pirogov nomidagi RMTTU ordinaturasiga qabul qilingan va «El-yurt umidi» jamg'armasi stipendiyalarini olishga tavsiya etilganlar bilan davra suhbat bo'lib o'tdi.

Tantanalı uchrashuvda Sog'liqni saqlash vaziri A.Xadjibayev kelgusida yurtimizga xizmat qiladigan, uning ravnaqiga o'z hissasini qo'shadigan, tibbiyot sohasining yetuk mutaxassisi bo'lishni orzu qilgan va g'olib bo'lgan bo'lg'usi shifokorlarni muborakbod etib, taqdirladi.

Quvonarli jihati shundaki, Samarqand davlat tibbiyot institutidan ham 5 nafar talaba «El-yurt umidi» jamg'armasi stipendiyasini olishga muvassar bo'ldi. G'oliblarga Sertifikatlar topshirildi.



Birinchi o'qish kuni «Mustaqillik darsi» bilan boshlandi

6-sentabr kuni Samarqand davlat tibbiyot institutining barcha kafedralarida professor – o'quvchilari tomonidan mamlakatimiz mustaqilligining 30 yilligi munosabati bilan, «Mustaqillik darsi» tadbirlari bo'lib o'tdi.

Talabalarga Mustaqillik buyuk ne'mat ekanligi, uning zamirida erkin va farovon hayot, tinchlik va osoyishtalik mujassamligi, har bir xalq va millat o'z erki va ozodligi uchun matonat ila kurashib yashashi katta sharaf ekanligi borasidagi ma'ruzalar o'qildi.

Ayniqsa, keyingi 5 yil davomida Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan tub islohotlar mohiyati, uchinchi renessans poydevorini yaratish bo'yicha qo'yilayotgan qadamlar mohiyati, yoshlarga yaratib berilayotgan keng imkoniyatlar haqida talaba-yoshlarga hayotiy misollar bilan ma'lumotlar berildi.

**Yoshlar bilan ishlash va ma'naviyat va ma'rifat
bo'limi boshlig'i Sulaymon Halimov**

SHIFOKOR SO'ZI

Institut va Belorussiya oliy o'quv yurtlari o'rtasidagi hamkorlik yanada kengaydi

Belorussiya davlat texnologiya universiteti rektori professor Voytov I.V., V.A.Belogo nomidagi ilmiy tekshirish instituti direktori professor Grigoryev A.Ya., kimyo instituti direktori akademik Agabekov V.Ye. boshchiligidagi delegatsiya hamda I.A.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti qoshidagi «Fan va taraqqiyot» DUK korxonasi direktori professor N.S.Abedlar Samarqand davlat tibbiyot institutiga tashrif buyurishdi.



Tashrif davomida kimyo meditsinaning asosiy fanlardan biri ekanligini hisobga olgan holda institutlar o'rtasida o'zaro aloqalar o'rnatildi. Kimyoni tibbiyotdagi, farmatsiyadagi o'rni, vazifalari, Belorussiya ilmiy tekshirish institutlarida olib borilayotgan ilmiy ishlar yuzasidan davra suhbat olib borildi. O'zaro tajribalar almashish yuzasidan kelajak rejalar tuzildi.

Tadbir doirasida mehmonlarga institutimiz tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor Zafar Aminov

Xalqaro ta'lim fakultetida uchta ta'lim yo'nalishi bo'yicha kirish imtihonlari bo'lib o'tdi



Samarqand davlat tibbiyot instituti xalqaro ta'lim fakultetida uchta Klinik psixologiya, Sog'liqni saqlash menejmenti hamda Oliy hamshiralik ishi yo'nalishlari bo'yicha kirish imtihonlari bo'lib o'tdi.

Abituriyentlar kirish imtihonlarini ikki bosqichda topshirishdi:

1-bosqichda Biologiya, Rus tili va Matematika blokleri bo'yicha test sinovidan o'tgan bo'lsa, 2-bosqichda esa abituriyentning aqliy salohiyatini va dunyo qarashini baholash maqsadida komissiya a'zolari tomonidan suhbat o'tkazildi.

SamDTI Matbuot xizmati

Institutda Klinik ordinaturaga kirish imtihonlari o'tkazildi



2021/2022-o'quv yili uchun Samarqand davlat tibbiyot instituti Klinik ordinatura (rezidentura)ga kirish uchun 39 ta yo'nalish bo'yicha onlayn test sinovlari o'tkazildi. Imtihonlar institut bosh binosini 150 o'ringa mo'ljallangan 3 ta «Kompyuter zallari»da bo'lib o'tdi.

Imtihon jarayoni bugungi vaziyatdan kelib chiqqan holda sanitariya-gigiyena talablariga mos ravishda tana harorati o'lchanib, ijtimoiy masofa saqlangan holda tashkil etildi.

Klinik ordinatura abituriyentlari imtihonga institutning ta'lim sifati, ichki nazorat bo'limi hamda dekanat xodimlari tomonidan tekshirilib fuqarolik pasporti bilan kiritildi.

Imtihon topshiruvchi abituriyentlarga sharoitlar yaratilgan bo'lib, adolatli va shaffof o'tkazilishi uchun barcha choralar ko'rildi.

**Institut klinik (o'quv) bazalari bilan
Ishlash bo'limi boshlig'i Ulug'bek Po'latov**



SamDTI xotin-qizlar maslahat kengashi Talabalar turar joyidagi qizlarning yashash tarzini o'rganishdi

Xotin-qizlar maslahat kengashi rahbari Xudayberdiyeva Gavxar Ismoilovna boshchiligida Samarqand davlat tibbiyot instituti 1-sonli hamda 3-sonli talabalar turar joylarida qizlar bilan davra suhbat bo'lib o'tdi.

Talabalar turar joyida yaratilgan sharoitlardan o'z uylaridagidek asrab, avaylab, oqilona, to'g'ri va unumli foydalanishlari, TTJ ichki qoidalar, tozalik, tartib intizomga rioya qilishlari to'g'risida tushuntirish ishlari olib borildi. Qizlar odobi, axloqi, sog'lig'i, kiyinish madaniyati to'g'risida suhbat o'tkazildi.

Suhbat yakunida TTJ nizomi va tartibi bilan batafsil tanishtirdi hamda talaba-yoshlarni turli tanlov va tadbirlarda faol ishtirok etishga taklif qildi.

**Institut rektorining xotin-qizlar masalalari bo'yicha
maslahatchisi Gavhar Xudoyberdiyeva**



Yangi o'quv yili uchun yangi zamonaviy o'quv binosi

Joriy yilda oliyog'ning birinchi bosqichiga 1846 nafar talaba, ulardan 875 - bakalavriyat, 202 - magistratura, 482 - klinik ordinaturaga qabul qilingan bo'lsa, xalqaro qo'shma ta'lim dasturlari asosida 225 nafar bakalavriyat, 10 - magistratura, 52 - klinik ordinatura yo'nalishida o'qishni boshladi.

Talabalar karantin talablariga rioya etgan holda, xususan, kirish qismida tana harorati o'lchanib, qo'llari antiseptik vositalari bilan dezinfeksiya qilingan holda oliyog' hududiga kiritildi.

Samarqand davlat tibbiyot instituti rektori professor Jasur Alimjanovich Rizayev birinchi kursga qabul qilingan talabalar, ularning ota-onalari

hamda yaqinlarini tabriklab, so'nggi yillarda mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida qabul kvotalari oshirilib, alohida imtiyozlar joriy etilgani, institutda yangidan-yangi yo'nalishlar ochilishi o'laroq ta'lim sifatining ijobiy tomonga o'zgarayotganini ta'kidladi.

Eslatib o'tamiz 1-kurs talabalariga bir hafta davomida tanishtiruv hamda Mustaqillik darslari o'tilgan edi. Qolgan barcha kurs talabalariga esa darslar o'quv reja asosida olib borildi.

**Yoshlar bilan ishlash va ma'naviyat va ma'rifat
bo'limi xodimi Nodirbek Musurmanov**

Birinchi kurs talabalari uchun kutubxona bilan tanishuv o'tkazildi

2021-yil 16-sentabr kuni Samarqand davlat tibbiyot instituti Axborot-resurs markazi kutubxonasiga farmatsiya fakulteti birinchi kurs talabalari tashrif buyurishdi.

Talabalarni ARM direktori G.I. Xudayberdieva kutib olib kutubxonani barcha bo'limlari bilan tanishtirdilar. Birinchi bo'lib ilmiy abonement bo'limi bilan tanishdilar. Bu yerda ma'lum bir muddatga hujjat bilan tibbiy yo'nalishdagi kitoblarni boshqa sohada kitoblardan olishlari mumkin. Keyingi bo'lim "Elektron kutubxona" bo'lib, bu yerda talabalarga elektron kitoblarni yaratilishi haqida aytili hamda ulardan qanday foydalanish to'g'risida izohlar berildi. Bibliografik-axborot bo'limida talabalarni yangi Rossiya tibbiy jurnallari va Rossiyadan keltirilgan adabiyotlar bilan birga bu bo'limda yana qanaqa xizmatlar ko'rsatilishi haqida gapirildi. Kutubxona doimiy tarzda eng zamonaviy o'quv adabiyotlar, shu jumladan xorijiy tillarda, boyitib kelayotganligi alohida ta'kidlandi.

O'quv zali bo'limida talabalarga xohlagan mavzusida tibbiyot va boshqa soha bo'yicha kitoblarni, ilmiy jurnallar va boshqa turdagi adabiyotlar olish mumkinligi aytili. Yana o'quv zalida dissertatsiya, avtoreferatlar va magistrlik loyihalari uchun buyurtma berish ham mumkinligi tushuntirildi.

Talabalar bo'limida faqat SamDTI talabalariga xizmat ko'rsatiladi. Bu yerda ularga o'quvchi chiptasi orqali o'quv adabiyotlari uyd foydalanishlari uchun beriladi. 1-2 kurs talabalari uchun komplekt-darsliklar beriladi, yuqori kurslar uchun esa adabiyotlar ma'lum bir sikkaga beriladi.

Kutubxona tashrifidan keyin talabalar qiziqtirgan savollariga javob olishdi va rahbariyatga qiziqarli ekskursiya uchun minnatdorchilik bildirishdi.

Bu kabi tanishtirishlar boshqa fakultetlarni birinchi kurs talabalari bilan ham o'tkazilmoqda.

SamDTI matbuot xizmati

Mustaqilsan bugun mana O'zbekiston!

*Hamma havas qilar senga butun dunyo,
Ko'hna bo'lib rivojlanding olam aro.
Iqtidorli ham fikrli yurtboshing bor,
Mustaqilsan bugun mana O'ZBEKISTON!*

*Har bir joying ko'chalarining chiroy ochar,
Osmono'par binolaring aqlim olar.
Sendan ketsam hayyollarim senda qolar
Mustaqilsan bugun mana O'ZBEKISTON!*

*Boburlaring qalam birla seni yozgan,
Amir Temur xotirasini mangu olgan.
Kimlar yana sening uchun jonin bergan,
Mustaqilsan bugun mana O'ZBEKISTON!*

*Shod kunlaring keldi mana yurtboshing bor,
Tinchligingni saqlab yurgan posboning bor.
Har o'lkada bir mehmondo'st ming xalqing bor,
Mustaqilsan bugun mana O'ZBEKISTON!*

*Rivojlangan davlatlardan o'rin olding,
Yangi tarix kitobiga mangu qolding.
Kuy va qo'shiq she'rlarida doston bo'lding,
Mustaqilsan bugun mana O'ZBEKISTON!*

Zayniddinov Muxiddin
Farmatsiya fakulteti 413-gurux talabasi

PREZIDENT SAYLOVI: SAYLOV KAMPANIYASI BOSHLANDI

2021 yil 23 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda yirik siyosiy jarayon O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga start berildi.

Tadbirida siyosiy partiyalar rahbarlari, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi. Unda Markaziy saylov komissiyasi 2021 yilning 24 oktyabr sanasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi kuni, deb belgiladi. Saylov kampaniyasi 23 iyuldan boshlanishi e'lon qilindi.

Prezident saylovi shu yil 8 fevralda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasiga kiritilgan o'zgartirishga muvofiq, oktyabr oyida bo'lib o'tadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Raisi Zayniddin Nizamxodjayev Prezident saylovi yangilangan milliy saylov qonunchiligi, umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga mos, demokratik tamoyillar asosida, ochiq va oshkora o'tkazilishini alohida qayd etdi.

Bo'lajak saylov 2017—2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan demokratik g'oyalarning amaldagi yana bir yorqin ifodasi bo'ladi.

2016 yil 4 dekabrda Prezident saylovidan buyon o'tgan besh yil mobaynida xalqimiz, mamlakatimiz hayotida, jamiyatimizda, milliy saylov qonunchiligida ulkan o'zgarishlar yuz berdi. Nufuzli xalqaro tashkilotlar hamda ekspertlar keng e'tirof etishganidek, bu davrda respublika hayotining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalarida xalq farovonligini yuksaltirishga yo'naltirilgan dadil islohotlar amalga oshirildi.

Ilk bor O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi asosida o'tadigan Prezident saylovida konstitutsiyaviy qoidalarni va xalqaro saylov standartlariga binoan O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, ya'ni davlat rahbari davriylik prinsipi asosida saylanishi ta'minlanadi.

Qolaversa, mamlakatimizda siyosiy partiyalar soni yana bittaga ko'payib, partiyalararo raqobat sezilarli darajada kuchaydi.

Majlisda saylov kampaniyasi davrida barcha siyosiy partiyalar va ular ko'rsatgan nomzodlar uchun sog'lom raqobat muhiti va teng sharoit yaratilishi alohida ta'kidlandi. Bunda Prezident sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq ishlarni, jumladan, saylovchilarning ovoz berish jarayonini o'z nomzodini ilgari surgan siyosiy partiyalar, fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari, xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar vakillari, jurnalistlar, jumladan, xorijlik jurnalistlar – minglab kuzatuvchilar kuzatib boradi.

Bo'lajak saylovni siyosiy-huquqiy va tashkiliy jihatdan yuksak saviyada o'tkazish maqsadida, Markaziy saylov komissiyasi tomonidan shu yil 14 aprelda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha asosiy tadbirlar dasturiga binoan, hamkor tashkilotlar bilan birgalikda keng ko'lamli ishlar izchil amalga oshirilmoqda.

Unga ko'ra, Prezident saylovining ahamiyati, o'ziga xos jihatlari, Saylov kodeksi, saylov qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirish hamda qo'shimchalarning mazmun-mohiyatini saylovchilarga va saylov tashkilotchilariga yetkazish muhim vazifa sifatida belgilangan. Aytish joizki, saylov kampaniyasi e'lon qilingunga qadar bo'lgan davrda amalga oshirilgan bunday tadbirlar millionlab fuqarolarni qamrab oldi.

Majlisda saylov qonunchiligida belgilangan normalarning ijrosini o'z muddatida va samarali ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini o'tkazish bo'yicha kalendar rejasini tasdiqlandi.

Kalendar rejada Markaziy saylov komissiyasi tomonidan tegishli davlat organlari, siyosiy partiyalar va boshqa jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda qadam-baqadam va kun-bakun amalga oshiriladigan vazifalar belgilangan. Okrug hamda uchastka saylov komissiyalarini tuzish, kuzatuvchilarning saylovdagi ishtirokini ta'minlash, saylovchilarning yagona

elektron ro'yxati, siyosiy partiyalarning, Prezidentlikka nomzodlar va ularning ishonchli vakillarining saylovdagi ishtiroki, saylov kampaniyasini moliyalashtirish, saylovoldi tashviqoti, saylov jarayonini yoritish, ovoz berishni o'tkazish bilan bog'liq ishlar ana shular jumlasidandir.

Markaziy saylov komissiyasi hamda barcha darajadagi saylov komissiyalari Prezident sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish davrida o'z ishini qonuniylik, mustaqillik, xolislik, ochiqlik, oshkorlik hamda shaffoflik tamoyillariga to'la amal qilgan holda tashkil etadi.

Majlisda shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi Matbuot markazi va uning hududiy bo'linmalarini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilindi hamda mazkur Markazning nizomi tasdiqlandi. Matbuot markazida tajribali jurnalistlar, huquqshunoslar, tarjimonlar, ekspertlar va boshqa mutaxassislardan iborat ixtisoslashtirilgan yettita guruh faoliyat olib boradi.

Markaziy saylov komissiyasining Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 1-uyda (Ma'rifat markazi, Simpoziumlar saroyi binosida) ish boshlayotgan Matbuot markazi hamda uning hududiy bo'linmalari zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlanadi. Ularda jurnalistlarga va jamoatchilikka saylovga oid masalalar bo'yicha tezkor axborot yetkazish maqsadida brifinglar, matbuot anjumanlari, uchrashuvlar hamda boshqa tadbirlar tashkil qilinadi.

Matbuot markazi Markaziy saylov komissiyasining "Saylov 2021" veb-portali hamda boshqa axborot resurslarining yuritilishini ta'minlaydi.

Yig'ilish so'ngida Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ommaviy axborot vositalari vakillari uchun majlisda ko'rib chiqilgan masalalar yuzasidan matbuot anjumanini va taqdimotlar o'tkazildi.

Markaziy saylov komissiyasi
Matbuot xizmati

Xirurgiya fanlari bo'yicha talabalar o'rtasida «Xalqaro olimpiada»ga qatnashish uchun arizalar qabul qilinmoqda

Hurmatli Samarqand davlat tibbiyot instituti 3-6-kurs talabalari,

sizlarni 2021-yil 11-12-noyabr kunlari «Rossiya Federatsiyasi Boshqirdiston Davlat Tibbiyot Universiteti»da umumiy xirurgiya, fakultet xirurgiyasi hamda hospital xirurgiya fanlaridan bo'ladigan oflayn «Xalqaro olimpiada» o'tkazilishi munosabati bilan 2021-yil 20-sentabrdan 30-sentabrgacha talabalar o'rtasida Xalqaro olimpiadaga qatnashish uchun tanlov o'tkazilmoqda.

Tanlovda ijobiy baholanib saralab olingan iqtidorli talabalar Boshqirdiston davlat tibbiyot universitetida o'tkaziladigan Xalqaro olimpiadaga ishtirok etishadi. Tanlovda ishtirok etmoqchi bo'lgan talabalar rus va ingliz tillarini bilishi kerak.

Tanlov o'tkaziladigan manzil: SamDTI 1-son xirurgik kasalliklar kafedrası.

Tanlov o'tkazish uchun mas'ul xodim: 1-son xirurgik kasalliklar kafedrası TIJ bo'yicha mas'ul assistent Diyor Shukurullayevich Abduraxmanov.

Murojaat uchun tel: +998979144848



O'zbekistonim

Mustaqil yurt O'zbekistonim,
Har manzili jannat makonim.
Tuprog'ı zar oltin qo'rg'onim,
Yurti obod, xalqi farovonim!

Tonglaringdek nurafshon tonglar,
Soylaringdek sharqiroq soylar.
Bog'laringdek sehrli bog'lar,
Qayda aytgin, sendek yurt qayda?

Dehqoningdek g'ayratli qayda,
Xalqimizdek mexmondo'st qayda?
Ajdodingdek buyuklar qayda,
Avlodingdek suyuqlar qayda?

Farzandinga ochding shunday yo'l,
Bu yo'l ravon, shonli, nurafshon.
Tengdoshlarim endi bering qo'l,
Vatan madhin ayta yillik shodon.

«Mangu ozod va obod bo'lgın O'zbekistonim»

Tibbiy pedagogika 602-guruh talabasi
Qudratova Shahzoda

“30 YIL – 30 QADAM”

“Mustaqillik – bu hech kimga qaram bo'lmasdan, o'z milliy manfaatlarimizni, uzoq va davomli maqsadlarimizni ko'zlab, iqtisodiyotimizning barqaror sur'atlar bilan o'sishini ta'minlash, aholimizning farovonligini, xalqaro maydonda Vatanimizning obro'-e'tiborini munosib darajaga ko'tarishdir”.

Islom Karimov.

Mustaqillik insoniyatning azaldan orzu-umidi bo'lib kelgan. Ana shu g'oya asosida AQSH, Fransiya, Lotin Amerikasi mamlakatlarida inqiloblar yuz berdi. 20-asrning 90-yillariga kelib sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish va ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarida qariyb yarim asr hukm surgan totalitar davlat tuzumi inqirozga yuz tutib, demokratik tartibotlar qaror topa boshladi. Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi parchalanib, uning o'rnida bir necha mustaqil respublika, Chexoslovakiya Sotsialistik Respublikasi ikkiga bo'linib, Chexiya va Slovakiya suveren davlatlari vujudga keldi. Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasi birlashib, nemislar yashaydigan hududda sotsialistik tuzum barham topdi. Ayni chog'da, sobiq SSSR parchalanib uning o'rnida mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan 15 mamlakat tashkil topdi. Boshqacha qilib aytganda, bu davrga kelib Mustaqillikka erishish masalasi dunyoni keng qamrab olgan jarayonga aylandi. O'zbekistonning Mustaqillikka erishishi ana shu olamshumul jarayon tarkibida yuz berdi.

1991-yil 31-avgust kuni qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi Bayonot O'zbekiston hukumatining siyosiy yo'lini to'la qonunlashtirib berdi. 1991-yilning avgustida «O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi qonun qabul qilindi va ana shu qonun doirasida O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining bundan keyin O'zbekiston SSRni O'zbekiston Respublikasi deb atash, 1-sentyabrni Mustaqillik kuni deb e'lon qilish, O'zbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ittifoqning va uning tarkibiga

kiradigan barcha mustaqil davlatlarning oliy qonun chiqaruvchi idoralariga, barcha xorijiy davlatlarga va jahon hamjamiyatiga murojaat qilib, ularni respublikaning davlat mustaqilligi e'lon qilingan hujjatni tan olishga da'vat etish to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu O'zbekiston mustaqilligining dastlabki huquqiy poydevori edi.

Jonajon Vatanimiz – O'zbekiston Respublikasi o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritgani va mustaqil taraqqiyot yo'lini boshlaganiga 30 yil to'ldi. Istiqlol el-yurtimiz uchun o'z taqdirining haqiqiy egasi bo'lib, qadr-qimmatini anglab, munosib hayot kechirish, yurtimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish imkoniyatini yaratdi. Ayni paytda u har bir odamning iqtisodiy, ijtimoiy sohalarida iste'dod va qobiliyatini to'la namoyon etishi, huquq va erkinliklarini ro'yobga chiqarishining mustahkam zaminidir. Mustaqillik yillarida ko'hna tariximiz, boy merosimiz, milliy davlatchiligimiz, muqaddas dinimiz, urf-odat va an'analimiz qayta tiklandi. Bugungi kunda mehr-oqibat, bag'rikenglik hamjihatlik kabi oliyjanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usi yuragimizning tub-tubidan o'rin oldi. Istiqlol bergan ulkan imkoniyatlar qarshisida turib o'tgan davr mobaynida bosib o'tilgan murakkab yo'limizga yana bir bor nazar tashlash, mustaqil taraqqiyotimiz davomida amalga oshirilgan ishlar, erishgan natijalarni xolisona baholash va ularning mohiyati va ahamiyatini keng jamoachilik, butun xalqimizning ongi shuuriga yetkazish maqsadga muvofiqdir.

Darhaqiqat, istiqlol tufayli o'zligimizni angladik, ozod xalq, mustaqil davlat sifatida O'zbekistonning bor bo'y-bastini, ulkan salohiyatini butun dunyoga namoyon qilish imkoni ochildi. Ozodlik bois bizni jahon tanidi, xalqimizning fidokorona mehnati, yoshlarimizning g'ayrati, azmu shijoati ila vatanimizning shon-shuhrati olam uzra yanada kengroq yoyilmoqda. Hurriyat bergan beqiyos imkoniyatlar negizida ertangi kunimiz - erkin va farovon kelajagimizni o'z qo'limiz bilan bunyod etmoqdamiz.

Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan

keng ko'lamli islohotlar milliy mustaqillik g'oyasi, yangi mafkurani shakllantirish hamda o'z Vatanning taqdiri, uning buguni va kelajagi uchun mas'uliyatni chuqur his etadigan, mustaqil va yangicha fikrlaydigan yosh avlodni tarbiyalash bilan bog'liq ravishda amalga oshirilayotgani ajdodlari buyuk avlodlarning yurtimiz kelajagi sahnasida asosiy o'rin kasb etishini isbotlaydi.

Vatanimiz rivojlanishi yangi pag'onaga ko'tarilgan kundan, mustaqillikdan, so'ng yoshlarga qaratilayotgan e'tibor davlat siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralib, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, mustaqil fikrlaydigan zamonaviy mutaxassislarni yetishtirish hamda jismonan baquvvat, iymon-e'tiqodi mustahkam, bilimli, vatanparvar, ma'naviyati yuksak, milliy g'oyani o'zida mujassam etgan shaxsni shakllantirishga e'tibor berila boshlandi. Barkamol avlodni tarbiyalash konsepsiyasining bugungi kunda rivoji va uni amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlar ishlab chiqish mamlakatimizning rivojlanish strategiyasida ustuvor darajaga ko'tarildi.

Bugun biz istiqboldagi buyuk mamlakat – O'zbekistonni ertaga qanday bo'lishi sizni bizning bugungi harakatimizga, iymonu vijdonimiz pokligiga va Vatan manfaatlarini shaxs manfaatlaridan qay darajada ustun qo'ya olishimizga bog'liqdir.

Agar har bir O'zbekiston fuqarosi, kim bo'lishidan qat'i nazar, Muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, har bir o'tgan kundan rozi bo'lsa, demak, ko'zlangan marralarga erishamiz. Zero, tomchida quyosh aks etgani kabi, yakka shaxslarning kundalik muvaffaqiyatlaridan O'zbekistonimizning buyuk zafarli odimlari hosil bo'ladi. O'zbek xalqining bir bo'lagi sifatida har birimiz hamisha o'z oldimizga ezgu maqsadlar qo'yib yashashimiz va ularni amalga oshirishda bor kuch-g'ayratimizni ayamashimiz zarur. Tinch, osuda hayotimiz esa barchamizni yangi - yangi marralarni egallashga chorlayveradi.

Pediatriya fakulteti, yoshlar masalalari bo'yicha dekan o'rinbosari
A.Ergashev



Institutda Nobel mukofoti laureati ma'ruzasi bo'lib o'tdi

20-sentabr kuni dunyoga mashhur turk va amerikalik olim, "DNKni tuzatish mexanizmlarini o'rganish uchun" kimyo bo'yicha Nobel mukofotini 2015 yildagi laureati, professor Aziz Sanjar Samarqand davlat tibbiyot institutiga tashrif buyurdi.

Professor Aziz Sanjar saraton kasalligini davolashda biologik soatdan foydalangani uchun turli ilmiy mukofotlarga sazovor bo'lgan. Xususan, Amerika Kimyo Jamiyati tomonidan 2001-yilda Shimoliy Karolina kimyochi mukofotiga sazovor bo'lgan. Bu mukofot bilan bir qatorda olim ilmiy dunyodagi eng nufuzli ilmiy muassasalardan biri bo'lgan AQSh Milliy Fanlar Akademiyasi a'zosi etib saylangan. Shuningdek, olim 2006 yilda Turkiya Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylangan.

SamDTIga tashrifi chog'ida oliy martabali mehmonga "Ipak yo'li" xalqaro turizm universiteti internacionalizasiya va strategik rivojlanish ishlari bo'yicha birinchi prorektor Juliboy Eltazarov hamrohlik qildi.

Martabali mehmonni tantanali kutib olish institutning katta majlislar zalida bo'lib o'tdi va unda institut rektori Jasur Rizayev kirish so'zini aytdi. Rektor o'z tabrigida doktor Aziz Sanjarga institutimizga tashrifi uchun minnatdorlik bildirdi va unga muvaffaqiyatlar hamda yangi kashfiyotlar tiladi.

Doktor Aziz Sanjar institut xodimlari uchun "Biologik soat, DNKni tiklash, saraton kimyoterapiyasi" ma'ruzasini o'qidi. Olim eksizyon ta'mirlash jarayoni, ya'ni DNKning o'ziga xos "tuzatish" jarayoni, buzilgan nukleotidni eksizyon tuzatish mutagen moddalar sabab bo'lgan nuqsonlarni bartaraf etish jarayonida ham sodir bo'lishi haqida batafsil gapirdi. Ma'ruzada onkologik va boshqa turdagi kasalliklarni davolashda biokimyodagi so'nggi kashfiyotlarini ahamiyati alohida qayd etildi.

Ma'ruza ishtirokchilardakattaqiziqish uyg'otdi. Nobel mukofoti sovrindori, ayniqsa, institutning yosh doktorantlari va magistrantlarining sharhlari va savollaridan mamnun bo'ldi.

Tashrif yakunida doktor Aziz Sanjar samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi va institutimiz xodimlarining yuqori ilmiy salohiyatini qayta-qayta ta'kidladi.

SamDTI matbuot xizmati

Institut xodimlariga davlat mukofotlari va esdalik nishonlari topshirildi



Samarqand davlat tibbiyot institutida viloyat bosh imom xatibining birinchi o'rinbosari Xayrulla Sattarov, institut yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi xodimi Musurmanov Nodir hamda talabalar ishtirokida davra suhbat tashkil etildi.

Davra suhbat davomida diniy erkinlik, diniy e'tiqod mavzusida fikr-mulohazalar almashinildi. Viloyat bosh imom xatibining birinchi o'rinbosari Xayrulla Sattarov talabalarga diniy erkinlikning nima ekanligi, uning mazmun-mohiyati, diniy e'tiqodning ahamiyati hamda insonning dinga bo'lgan munosabatini belgilashda qo'llaniladigan tushunchalar haqida gapirib o'tdi.

Davra suhbat qizg'in savol-javoblarga boy tarzda yakunlandi.

Diniy erkinlik to'g'risida talabalarga tushuncha berildi



O'zbekistonning yangi tarixi...bu qisqa biroq shonli yo'l shu muqaddas yurtida yashayotgan har bir inson taqdiri bilan chambarchas bog'liq.

Ko'nglimizni tog'day ko'targan yutuq va muvaffaqiyatlarimiz zahirida har bir O'zbekistonlikning o'z bo'lsada o'rni bor.

Mustaqilligimizning 30 yilligi munosabati bilan minglab vatandoshlarimiz davlatimizning e'tirofi va hurmati ramzi sifatida maxsus ko'krak nishonlari bilan taqdirlandilar.

Ular orasida Samarqand davlat tibbiyot institutining professor-o'qituvchilari ham bor.

Ular Vatanimiz ravnaqi yo'lida chinakam mehnat qildilar. El boshiga ish tushganida odamlar dardiga darmon bo'ldilar. Ayni yozning jaziramasida Covid zonalarda, qizil hududlarda haqqoniy sadoqat namunalarini ko'rsata oldilar.

Bugun xalq dardi bilan yashayotgan insonlar mehnati e'tirof etilib, bu iqrar shonli tariximiz zarvaraqalariga muhrlab qo'yildi.

Biz ham ko'p ming sonli jamoamiz nomidan muborak bayram arafasida nomlari katta hurmat bilan e'tirof etilganlarni tabriklaymiz!

Yoshlar bilan ishlash va ma'naviyat va ma'rifat bo'limi xodimi Nodirbek Musurmanov

Yana bir xorijiy tibbiyot oliy ta'lim muassasasi bilan hamkorlik aloqalari o'rnatildi

Samarqand davlat tibbiyot institutida fan va ta'lim sohasida xalqaro aloqalar va universitetlararo hamkorlik munosabatlarini kengaytirish ishlari izchil amalga oshirilib kelinmoqda.

Institutda yangi ta'lim standartlarini joriy etish, o'quv va ilmiy faoliyat uchun innovatsion yondashuvlarni keng tadbir etish maqsadida ilmiy — pedagogik ishlar samaradorligi oshirilib, amaliy sog'liqni saqlash uchun mutaxassislar tayyorlash darajasi oshirilib borilayapti.

Ta'lim jarayonlarida akademik mobillikni yanada kengaytirish maqsadida, Janubiy Qozog'iston tibbiyot akademiyasi rektori tibbiyot fanlari doktori, professor, klinik va fundamental tibbiyot fanlar akademiyasi akademigi Mirzabek Mirzashevich Rusbekov Samarqand davlat tibbiyot institutiga tashrif buyurdi.

JQTA rektori Mirzabek Risbekov va Samarqand davlat tibbiyot instituti rektori professor Jasur Rizayev kelgusida SamDTI hamda JQTA talabalarining o'quv jarayonini integratsiyasini yo'lga qo'yish, o'qituvchilar bilan mahorat almashish, o'qitishning faol usullari bilan o'zaro tajriba almashishga kelishib oldilar.

Xususan, qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etish, professor – o'qituvchilar, magistrnlarning ilmiy faoliyatini hamkorlikda yo'lga qo'yishda ikki tomonlama manfaatli rejalar tuzildi.



M.Risbekov institutning yangi bosh binosiga tashrifi buyurib, talabalar uchun yaratilgan sharoitlarni yuqori baholadi.

SamDTI matbuot xizmati

SamDTIda O'zLiDeP targ'ibot uchrashuvi bo'lib o'tdi



Samarqand davlat tibbiyot institutiga O'zLiDeP viloyat Kengashi "Ayollar qanoti", "Siyoziy ta'lim" markazi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga saylovlarga qizg'in tayyorgarlik ishlari bo'yicha targ'ibot uchrashuvi o'tkazildi.

Tadbirni institut prorektori Tangirov Eldor Sayfullaevich ochib berdilar. Ayni damlarda joriy yilning 24-oktyabr kuni bo'lib o'tadigan saylov naqadar muhim ekanligi, har bir ovoz beruvchi bunga ma'sulyat bilan qarash lozimligini ta'kidladilar.

So'ngra O'zLiDeP Samarqand viloyat Kengashi tomonidan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati tomonidan "Biz shifokorlarning tanlovi – Shavkat Mirziyoyev" nomli targ'ibot aksiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobining mazmun-mohiyatini targ'ib qilishga qaratilgan targ'ibot tadbiri bo'lib o'tdi.

E'tirof etilganidek, aholi salomatligini asrash, oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, onalik va bolalikni muhofaza qilish, xalqimizga ko'rsatilayotgan tibbiy-profilaktika yordamining sifati va samaradorligini yuksaltirish, tibbiyot



muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, tibbiy xizmat sifatini yuksaltirish, sog'liqni saqlash tizimini tibbiyotning eng so'nggi texnologiyalari bilan ta'minlash nomzod dasturining eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu maqsadda tashkil etilgan targ'ibot aksiyasi doirasida o'tkazilgan tadbirida Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini yangi darajaga ko'targanligi, bu esa fuqarolar sog'lig'ini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etayotganligi qayd etildi.

Tadbir davomida O'zLiDeP Samarqand viloyat Kengashi raisining ayollar masalalari bo'yicha o'rinbosari, "Siyoziy ta'lim" markazi rahbari Sayfiddinova Jamila Badriddinova hamda "Sifatli ta'lim – inson kapitalini rivojlantirishning hal qiluvchi omili" mavzusida Samarqand davlat tibbiyot instituti tibbiy kimyo kafedrası mudiri, O'zLiDeP viloyat Kengashi "Ayollar qanoti" faoli Xolmurodova Dilafroz Kuvatovnaning ma'ruzalari tinglandi.

Yoshlar bilan ishlash va ma'naviyat va ma'rifat bo'limi xodimi Nodirbek Musurmanov

Abituriyentlarga yana bir yengillik!



Xabaringiz bor, tabaqalashtirilgan (super) to'lov-shartnoma asosida o'qish istagini bildirgan abituriyentlar tomonidan onlayn ariza berish hamda shartnomani rasmiylashtirish uchun t-kontrakt.edu.uz platformasi ishga tushirilgan edi.

Abituriyentlarga qulaylik yaratish maqsadida t-kontrakt.edu.uz platformasi orqali ariza berish hamda shartnomani rasmiylashtirish jarayonlarini elektron shaklda amalga oshirish bo'yicha video yo'riqnoma tayyorlandi.

Yo'riqnoma orqali ariza berish hamda shartnomani rasmiylashtirish jarayonlari haqida batafsil bilib olishinuz mumkin.

Manba:edu.uz



SamDTI quyidagi lavozimlarga tanlov e'lon qiladi

PEDIATRIYA FAKULTETI

Bolalar kasalliklari propedevtikasi kafedrası, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Oftalmologiya kafedrası, assistent o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;

2-son bolalar xirurgiyasi kafedrası, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

TIBBIY PEDAGOGIKA FAKULTETI

Pedagogika psixologiya kafedrası, assistent o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;

Tillar kafedrası, assistent lavozimiga - 3 o'rin;

Informatika va informatsion texnologiyalar kafedrası, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

DAVOLASH ISHI FAKULTETI

2-son ichki kasalliklar kafedrası, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

FARMATSIYA FAKULTETI

Klinik farmakologiya kafedrası, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Kafedra mudiri lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin

TIBBIY PROFILAKTIKA, JAMOAT SALOMATLIGI VA TIBBIY BIOLOGIYA FAKULTETI

Normal fiziologiya kafedrası, stajor-assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Tibbiy biologiya va genetika kafedrası, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Odam anatomiyasi kafedrası, assistent o'qituvchi lavozimiga - 2 o'rin;

Umumiy gigiena va ekologiya kafedrası, assistent o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Patologik fiziologiya kafedrası, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

DIPLOMDAN KEYINGI TALIM FAKULTETI

Akusherlik va ginekologiya kafedrası, katta o'qituvchi lavozimiga - 1 o'rin;

Bolalar xirurgiyasi, anesteziologiya va reanimatsiya kursi, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;

Assistent o'qituvchi lavozimini egallash uchun tanlovda fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga, tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.

Hujjatlar e'lon qilingan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

Manzil: Samarqand shahri A.Temur ko'chasi, 18 uy.

Ilmiy kotib M.T.Nasretidinova

Institut Xotin-qizlar maslahat kengashi talabalar bilan uchrashuv o'tkazdi



Samarqand davlat tibbiyot instituti Xotin-qizlar maslahat kengashi faollari tomonidan davolash, pediatriya, tibbiy profilaktika fakultetlari talaba-qizlari o'rtasida "Odobimiz — ziynatimiz" mavzusida uchrashuvlar o'tkazildi.

Uchrashuvlarda so'z olgan kengash faollari mamlakatimizda yoshlarga, xotin-qizlarga berilayotgan ulkan imkoniyatlar, institut talabalari uchun yaratilgan shart-sharoitlar, institut ichki mehnat intizomi, tartib qoidalariga va odob axloq etikasiga rioya qilish, milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni qadrlash, kiyinish va muomala madaniyati, tozalikka e'tibor qaratish to'g'risida fikr bildirishdi. O'quv xonalari, zallar, jihozlar, kompyuter texnikalari va maishiy xonalardan to'g'ri foydalanish kerakligi haqida to'xtalib o'tildi.

Tadbir ishtirokchilari o'zlarini qiziqtirgan barcha savollarga javob olishdi.



Institutga Hindiston Davlat tashqi ishlar va madaniyat vaziri tashrif buyurdi

Hindiston diplomatiyasining «yuzi», Hindiston Davlat tashqi ishlar va madaniyat vaziri Meenakshi Lekhi xonim, bugun Samarqand davlat tibbiyot institutiga tashrif buyurdi.

Samarqand davlat tibbiyot instituti rektori professor Jasur Rizaev, tadbirni ochib berar ekan, Yurtimizda jadallik bilan olib borilayotgan oliy ta'lim va sog'liqni saqlash sohasi islohotlari tibbiyot yo'nalishlarida tahsil olayotgan chet ellik talabalarga ham maqbul sharoitlarni yaratib kelmoqda deb aytdi.

Meenakshi Lekhi xonim SamDTIda o'qiyotgan Hindistonlik talabalar to'plangan zalga qadam qo'yar ekan, O'zbekistonga har gal kelganida ushbu mamlakatning boy ilmiy-tarixiy merosi, tib ilmiga asos solgan allomalar yurti ekanligini aytib, mamlakat xalqining o'zbekona lutf, o'ziga xos mehmondorchiligidan o'zgacha zavq olishi haqida so'z ochdi.

Nufuzli diplomatga hamrohlik qilayotgan. Hindistonning O'zbekiston respublikasidagi favqulodda va muxtor elchisi, janob Manish Prabhat shuningdek SamDTIning xalqaro ta'lim fakultetida tahsil olayotgan 80 nafar hindistonlik talabalar bilan ochiq muloqot o'tkazildi.

Diplomat xonim, Hindistonlik talabalar orqali, O'zbekistonda xususan Samarqand davlat tibbiyot institutida ularga yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishib, talabalarning qanchalik, O'zbekiston sharoitiga moslashishayotganligi, o'qish jarayonlaridagi yutuq va kamchiliklarni shaxsan o'zi kuzatdi.

Ochiq muzokaralarda Meenakshi Lekhi xonim, uning O'zbekistonga tashrifi shunchaki protokol tashrif emas va u shunchaki rasmiyatchilik uchun amalga oshirilayotgani yo'q, deya ta'kidlandi. Davlatlaro munosabatlarga yangicha sifat aks etishi hamda hindistonlik talabalarning O'zbekistonda egallagan bilimlari Hindiston tibbiyotida o'zini ko'rsatishi muhimligini ta'kidlandi.

Xalqaro ta'lim fakulteti dekani Farhod Raupov

Tahririyat raisi:

J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:

E.S. TANGIROV

Tahrir hay'ati:

G'U. LUTFULLAEV,

S.A. KARABAEV,

S.E. MAMARADJABOV,

A.A. AXMEDOV,

J.F. KADIROV.

SHIFOKOR SO'ZI

Nashr uchun mas'ul:

N. MUSURMANOV

Operator va sahifalovchi:

A. KELDIYAROV

Fotomuxbir:

O. AXMEDOV

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yxatga olingan.

INDEKS: 5539

Gazeta har oyda bir marta to'liq rangli shaklda chop etiladi va bepul tarqatiladi

MANZIL: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.

Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75

e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta SamDTI bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.

Nashrga ruxsat berildi: 2021 yil, 27 sentyabr Adadi 200 nusxa. Buyurtma: 345